

## “ROHATI DIL” DOSTONINING STRUKTURASI

Hayotjon Abdullayev

Farg‘ona davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

Muzaffarova Shohzoda

Farg‘ona davlat texnika universiteti 68-24 B.Hr. guruhi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20524019>

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Xojanazar Huvaydoning “Rohati dil” dostonining badiiyati va uning g‘oyaviy ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Dostonning hajmi, undagi badiiy san‘atlar hamda tasavvuf adabiyotidagi tutgan o‘rni tahlil qilingan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются художественные особенности и идейное значение поэмы Ходжаназара Хувайдо «Рохати дил». Анализируются объем произведения, используемые художественные средства, а также его место в суфийской литературе. В результате исследования выявляется значение поэмы в литературном процессе своего времени и её духовная ценность для современного читателя.

**Annotation:** This article explores the artistic features and ideological significance of Khojanazar Khuvaydon’s poem “Rohati Dil.” The study analyzes the poem’s length, the literary devices employed, and its role within Sufi literature. The findings highlight the importance of the poem in the literary process of its era and its spiritual value for today’s readers.

**Kalit so‘zlar:** Xojanazar Huvaydo, “Rohati dil” dostoni, tasavvuf adabiyoti, didaktik doston, mumtoz adabiyot, ma’naviy tarbiya, shariat qoidalari, pandnoma an‘analari, “Ibrohim Adham” qissasi, falsafiy-didaktik mazmun, aruz she‘r tizimi, o‘zbek klassik adabiyoti

**Ключевые слова:** Ходжаназар Хувайдо, поэма «Рохати дил», суфийская литература, дидактическая поэма, классическая литература, духовное воспитание, шариатские правила, традиции панднома, рассказ об Ибрахиме Адхаме, философско-дидактическое содержание, арузская система стихосложения, узбекская классическая литература

**Keywords:** Khojanazar Khuvaydo, poem “Rohati Dil,” Sufi literature, didactic poem, classical literature, spiritual education, Sharia rules, Pandnoma traditions, story of Ibrahim Adham, philosophical-didactic content, Aruz poetic system, Uzbek classical literature

Xojanazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydoning lirik she‘rlari, ya‘ni g‘azallari, ruboiylari va boshqa kichik lirik janrlardagi ijodi bir taraf bo‘lsa, uning “Rohati dil” dostoni yana bir taraf bo‘ladi. O‘z zamondoshlari hamda keyingi davr ijod va ilm ahli tomonidan “Qutbi zamon” deya e‘tirof etilgan shoirning mazkur dostoni o‘zining janr xususiyatlari va mazmun-mohiyati bilan o‘zi kabi asarlar orasida ajralib turadi.

Xojanazar Huvaydo mumtoz adabiyotimizdagi didaktik hamda epik dostonchilik an‘analarini davom ettirib, “Rohati dil” hamda “Ibrohim Adham” asarlarini yaratdi. Ushbu asarlar muallifining dostonnavishlik salohiyatidan xabar beruvchi qimmatli manba bo‘lib, shoirning o‘zbek mumtoz pandnoma adabiyoti xazinasiga qo‘shgan munosib hissasidir.

Insoniyatni loqaydlik va atrofdagi hodisalarga, jamiyatga bo‘lgan e‘tiborsizlik, alaloqibat, jaholat, g‘aflat tanazzulga yetaklaydi, ma’naviy qashshoqlikka mahkum etadi. Shuning uchun ham mumtoz adabiyotimiz vakillari barkamol avlod tarbiyalashni muhim vazifa, burch, deb hisoblaganlar. Va albatta, insonlarni kamolotga, ma’naviy hazinalarga yetaklashga intilganlar.

Jumladan, Huvaydo “Rohati dil” dostonini ham xuddi shu muammolarga bag‘ishlagan. Uning masnaviy yo‘lida yozilgan ushbu dostoni xalq orasida o‘ta mashhur bo‘lgan. Shoir dostonning yozilish sababiga alohida kichkina bob bag‘ishlaydi. Undan biz shoirning nasl-u nasabi, tug‘ilgan joyi, ismi-sharifi haqidagi ma‘lumotlarni bilib olamiz. “Rohati dil” dostoni falsafiy-tasavvufiy ruhdagi asar bo‘lishi bilan birga, unda shoir tarjimayi holiga dahldor o‘rinlar ham bor. Kitobning yozilish sabablari ham doston muqaddimasidan anglashiladi. Masalan: asarning “Sababi nazmi kitob” bobida shoir o‘z maqsadini bayon qilar ekan, shunday deydi:

Kitobimning otidur “Rohati dil”

Erur har bir so‘zi tanbehi g‘ofil<sup>1</sup>...

Bundan ko‘rinib turibdiki, shoirning “Rohati dil”ni yozishdan maqsadi – zamondoshlarini ma‘naviy g‘aflatdan uyg‘otish.

U asarni dastlab fors tili bilan nasrda yozgan. Keyinchalik talab va takliflarni inobatga olib, uni nazm yo‘li bilan qayta yaratgan. Shoirning butun umri kechgan Chimyon qishlog‘i aholisi turkiy tilda so‘zlashgani bois nazmiy doston turkiy tilda yozilgan.

Ko‘ngulning shahri sori azm qildim,

Kitobim nasr erdi nazm qildim.

Bu Chimyon shahrining piru javoni,

Tamomiysi erurlar turkiy xoni.<sup>2</sup>

“Rohati dil” dostoni asosiy 30 bobdan va unga ilova tarzida keltirilib, shoir ilgari surayotgan g‘oyani yorqinroq ochib berishni maqsad qilingan “Ibrohim Adham” hikoyatidan iborat. XVIII asrga ta‘lluqli bu adabiy xazinaning 30 bobdan tashkil topishida ham ramziy ma‘no borligi – tabiiy. Chunki Alloh taolo buyurganlari va Quroni Karim mohiyati negizida dunyoga kelajak asarning ham xuddi “Bosh kitob” 30 poradan tashkil topgani va yaxshi niyat bilan o‘zining asarini ham so‘fiy ijodkor 30 bobga ajratgan bo‘lsa kerak (“Rohati dil”ni Muqaddas Qur‘oni Karim bilan tenglashtirishdan yiroqmiz).

Asar yaratilganidan to shu davrga qadar bir necha bor nashr etildi. Dastlab 1906-yilda shoirning chevarasi Sirojiddin Soqib tomonidan Toshkentda nashr etilgan asar keyinchalik olimlar va adabiyotshunoslar tomonidan turli tuzatishlar kiritilib, qayta-qayta nashr qilindi. Jumladan, Huvaydoning «Rohati dil. Ibrohim Adham» kitobi 1994-yili Toshkentda Saidbek Hasan tomonidan nashrga tayyorlangan «Xojanazar Huvaydo. Rohati dil» kitobini chop etishda yo‘l qo‘yilgan qo‘pol xatolarni bartaraf etish zaruriyatidan, qolaversa, Hazrat Xojanazar Huvaydo tavalludining 310-yilligi oldidan asar qayta nashrga tayyorlandi va kitob izohli lug‘at bilan ham boyitildi. Shuningdek, mazkur asarga birinchi marta Huvaydoning Chimyonlik chevarasi Faxriddin eshon Xokiy (1832 - 1919)ning «Nasabnomai Huvaydo quddisa sirrahul aziz» (1906) asari hamda shoirning o‘shlik chevarasi Salohiddin Soqib (1838 - 1910)ning «Kitobi eshon Huvaydoyi Chimyoniy» devonining chop etilish tarixiga doir asari (1906) ilova qilindi.

Ushbu doston ham o‘zi mansub bo‘lgan tipdagi asarlar kabi an‘anaviy tarzda – Yaratganga hamd va Payg‘ambarlarga na‘t bilan boshlangan. Keyin chahoryorlar – Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Alining ibratli amallari bayoni keltirilgan. Shariat qonun-qoidalari, talablari sharxlangan. Shundan so‘ng bir qancha pandnoma hikoyatlar keltirilgan.

“Rohati dil” asari aruz she‘r tizimining hazaji musaddasi maqsur (mahzuf) bahrida bitilgan bo‘lib, a-a, b-b, d-d... shaklida qo‘fiyalanadi. Taqte‘si quyidagicha tartiblanadi:

<sup>1</sup> Huvaydo. Rohati dil. Ibrohim Adham – Toshkent: “Navro‘z”, 2011. 35-b.

<sup>2</sup> Yuqoridagi manba, 35- bet.

V---\ V---\ V--\  
V---\ V---\ V--\.

Asar tarkibida har biri alohida nom bilan yuritiladigan boblar bo'lsa-da, ularni bir g'oyaviy mushtaraklik bog'lab turadi. Masnaviy usulida yozilgan ushbu asar, qaysidir ma'noda, Ahmad Yassaviy hikmatlari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilik” dostoni, Alisher Navoiy asarlarining g'oyaviy davomchisi o'laroq namoyon bo'ladi.

“Rohati dil”ning tili Navoiy, Bobur kabi ulug' ijodkorlarning asarlari tilidan ko'ra yengilroq, va bugungi avlod tushunishi uchun uncha murakkablik tug'dirmaydi. Albatta, an'analardan chekinmagan holda, o'zi yashab turgan davr va zamon so'zlashuv tilini ham inobatga olgan shoir mazkur dostonni anchayin sodda tilda bitgan. Bu esa o'sha vaqt kishilarining dostonni ravon oqiy olishi va uning maqsad va g'oyasini oson anglab yetishi uchun xizmat qilishini ko'zlagan bo'lsa, ne ajab. Bunga yaqqol misol tariqasida shuni keltirib o'tish mumkinki, shoir asar tarkibidagi so'zlarda o'sha davr shevasini ham inobatga oladi. Misol uchun, asar tarkibida kelgan “Payambar” so'zi bugungi kunda “Payg'ambar”, deya talaffus etiladi. Bu kabi misollarni yana bir qancha keltirib o'tish mumkin.

Taniqli adabiyotshunos olimlarimizdan biri “Rohati dil haqida shunday deydi:

“Xojanazar Huvaydoning masnaviy yo'lida yozilgan «Rohati dil» dostonini va “Ibrohim Adham” qissasi o'z muallifining dostonnavislik salohiyatidan darak beruvchi yodgorlik bo'lib, shoiming o'zbek mumtoz pandnomasi xazinasiga qo'shgan munosib hissasidir. Ushbu doston xalq orasida mashhur. U Huvaydo she'rlaridagi mazmun va g'oyani to'ldiradi, teranlashtiradi. “Rohati dil” g'ofil yuraklami nasihat nurlaridan munavvar etuvchi ma'rifiy manzumadir.”

Shuningdek, falsafa fanlari doktori, professor, Huvaydoshunos olim Qodirqul Ro'zmatzoda o'z maqolalaridan birida Huvaydo va uning asarlari, xususan, “Rohati dil” dostoni va “Ibrohim Adham” qissasi haqida shunday deydi:

“Huvaydo tasavvufda yangi tariqat yaratmadi, balki atrofida tasavvufning ilgaridan shakllangan ilg'or g'oyalarni uyg'unlashtirishga, jamiyatni tanazzul va parokandalikdan qutqarish, iymon-e'tiqodli komil inson shaxsini shakllantirishning yangi qirralarini izlab topishga harakat qildi. Uning ijodida Imom G'azzoliy, Abduholiq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Fuzuliy, So'fi Olloyor singari mashhur mutasavviflarning g'oyalari alohida o'rin egalladi.<sup>3</sup>

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Huvaydo. Rohati dil. Ibrohim Adham – Toshkent: “Navro'z”, 2011
2. Ibrohim Haqqul. “Asliyatga qaytish ma'rifati”.
3. O'zbek adabiyoti tarixi [5 jildli, 5-j., T., 1978;
4. Qayyumov P., Tazkirai Qayyumiy, T., 1999.

<sup>3</sup> <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2026/01/Ankabayeva-M.-Disserta-ya.pdf>